



**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ**  
**ҚИШЛОҚ ВА СУВ ХЎЖАЛИГИ ВАЗИРЛИГИ**  
**ТОШКЕНТ ИРРИГАЦИЯ ВА МЕЛИОРАЦИЯ ИНСТИТУТИ**  
**КАМОЛОТ ЁШЛАР ИЖТИМОЙ ҲАРАКАТИ**



**“ҚИШЛОҚ ВА СУВ ХЎЖАЛИГИНИНГ  
ЗАМОНАВИЙ МУАММОЛАРИ”**

*мавзусидаги анъанавий XV- ёш  
олимлар, магистрантлар ва  
иқтидорли талабаларнинг илмий-  
амалий анжуман*



*XV – traditional Republic scientific –  
practical conference of young scientists,  
master students and talented students  
under the topic*

**“THE MODERN PROBLEMS OF  
AGRICULTURE AND WATER REOURCES”**

**МАҚОЛАЛАР ТЎПЛАМИ**

**Тошкент – 2016 йил 15 – 16 апрель**

<b>8-ШЎБА</b>			
<b>Сув хўжалиги масалаларида математик моделлаштириш усуллари ва ахборот технологияларини қўллаш</b>			
57.	Каримова Х.Х. - ТИМИ и.ф.н., Абдуллаев О. - ТИМИ талабаси	Фермер хўжаликлари ишлаб чиқаришини ривожлантириш муаммо ва омиллари	147
58.	Абдуллаева М.В., Зухридинова К.К., Савина А.О. - студенти ТИИМ	Задачи на оптимизацию земельных ресурсов	150
59.	Абдуллаева М. В., Исроилова З., Нарзуллаев Ж., Исаева Ш. - студенти ТИИМ	Применение неравенства коши к исследованию функции	153
60.	Айнақулов Ш.А. - ТИМИ катта ўқитувчиси, Абулхаев Э. - ТИМИ талабаси	Microsoft excel электрон жадвалида дастурлаш технологиялари	155
61.	Abdusamadov B. - TIMI talabasi	Internet jahon iqtisodiy inqirozi davrida	158
62.	Каримова Х.Х. - к.э.н.ТИИМ, Алимов У., Умарова Ш. - студенти ТИИМ	Анализ модели выбора оптимального варианта развития производства фермерских хозяйств	160
63.	Boboqandov Sh.R. - TIMI talabasi	Kompleks ildizli arifmetik tenglamalarning fizikaviy masalalarda tadbiqi	163
64.	Бойқулов Ж., Боратов В., Ўролова М. – ТИМИ талабалари	Ҳозирги замон физикасининг асосий муаммолари	165
65.	Djamolova X.S. - TIMI assistenti, Djamolova A.R. - TIMI talabasi	Injenerlik masalalarining matematik modelini tuzish	167
66.	Айнақулов Ш. А. - ТИМИ катта ўқитувчиси, Джамалова А.Р. - ТИМИ талабаси	Электр занжиридаги ток тақсимоти масаласини математик модели	169
67.	Джамалова Х.С. – ТИМИ ассистенти, Джамалова А.Р. - ТИМИ талабаси	Истеъмолчиларни электр энергияси билан оптимал таъминлаш	172
68.	Джамалова А.Р. - ТИМИ талабаси	Комплекс қувватли функциялар учун конформ акслантиришлар	173
69.	Djamolov K. - TIMI dotsenti Aynaqulov Sh.A. - TIMI katta o'qituvchisi	O'zaro induktiv bog'langan zanjirdagi tok kuchining matematik modeli	177
70.	Kamolov O., Sherboyev H. - TIMI talabalari	Iqtisodiy masalalarni chiziqli algebra elementlari yordamida yechish	180
71.	Aynaqulov Sh.A. - TIMI katta o'qituvchisi, Maxmudov V. - TIMI talabasi	Internetning uz hududida domenni ro'yxatdan o'tkazish haqida	182
72.	Po'latov S. - TIMI talabasi	AutoCAD dasturida uch o'lchamli modellashtirish bosqichlari	185
73.	Пўлатов С. - ТИМИ талабаси	Болтли бирикмаларни лойиҳалашда компьютер технологияларидан фойдаланиш самарадорлиги	187
74.	Roziqov R., Oripov X., Qudratov M., - TIMI talabalari	Iqtisodiy masalalarni yechishda analitik geometriya elementlarini qo'llash	191
75.	Айнақулов Ш.А. - ТИМИ катта ўқитувчиси, Саидазимова М. - ТИМИ талабаси	MS EXCEL дастурида макрокомандалар	193

76.	Айнақулов Ш.А. - ТИМИ катта ўқитувчиси, Хамидов С. - ТИМИ талабаси	Microsoft word дастурида макрорекордерлар билан ишлаш	196
77.	Шербоев Ҳ. - ТИМИ талабаси	Иқтисодиётда математиканинг тутган ўрни	198
78.	Айнақулов Ш.А. - ТИМИ катта ўқитувчиси, Шодмонова И. - ТИМИ талабаси	Microsoft excel дастурида фойдаланувчи функцияларини қўллаш	200
79.	Rahmonov I., Davlatyorova N. - TIMI talabalari	Funksiyaning differensiali yordamida masalalarni taqribiy yechish	203
80.	Дулдулова О.О., Хафизов Б.З. – студенти ТИИМ	Элиминативная форма обратной матрицы	205
81.	Абдуллаев М.Х., Эркинов Р.Ш. – ТИМИ талабалари	Электр занжирлардаги жараёнларнинг дифференциал тенгламаларини тузиш ҳақида	207
82.	Айнақулов Ш.А. - ТИМИ катта ўқитувчиси, Жавқаев Х. – ТИМИ талабаси	Интернет - яратилиш ва ривожланиш тарихи	210
83.	Raximov J. - TIMI talabasi	Moodle tizimining kelib chiqishi va undan foydalanish	212
84.	Komilova X.M. - TIMI assistenti, Yuldasheva D. - TIMI talabasi	Elementar matematikaning asosiy formulalarini yer sathi yuzasini hisoblashga tadbiqi	215
85.	Джамолова А.Р., Қаландаров М.А. - ТИМИ талабалари	Электр занжирдаги ток кучининг ўзгариш қонунини дифференциал тенгламалар ёрдамида топиш	218
86.	Каримова Х.Х. - ТИМИ и.ф.н., Рустамов Ф. - ТИМИ талабаси	Фермер хўжалиklarини ривожлантиришда ер майдони ўлчамининг ахамиятини тахлили	221
87.	Хайдаров А., Алибаева З. - студенти ТИИМ	Применение дифференциальных уравнений к различным задачам	223
88.	Мавлонов С.П. - ТИМИ ассистенти, Бахромқулов Д.А. - ТИМИ талабаси	Фермер хўжалиklarида экин майдонлари таркиби ва ихтисослашувини оптималлаш модели	225
89.	Бозорбоев Т.Н., Усманов С.С. - ТИМИ талабалари	Чизиқли алгебраик тенгламалар системасини гаусс методи билан ечиш	228
90.	Эшматов Б.Х. - .доцент ТИИМ, Рузиев С.Б - ассистент ТИИМ	Математическая модель задачи о динамической устойчивости вязкоупругой пластины из композиционного материала	230
91.	Хўрозбоев М.Р., Алибеков И.Т. – ТИМИ талабалари	Эксперимент натижаларидан фойдаланиш	233
92.	Алибеков И.Т., Хўрозбоев М. Р. – ТИМИ талабалари	Чизиқли алгебраик тенгламалар системасини интеграция усулида ечиш	236

**INTERNET JAHON IQTISODIY INQIROZI DAVRIDA****Abdusamadov B. - TIMI talabasi****Annotatsiya**

Maqolada dunyodagi mollyaviy inqiroz davrida Internet xizmat turlarining qanday darajada rivojlanib borishi va turli mamlakatlardagi shu soha bo'yicha malumotlar keltirilgan.

Xozirda dunyoda kechayotgan jahon moliyaviy inqirozi Internetga qanday darajada ta'sir etmoqda? Inqiroz iqtisodiyotning, jamiyatning deyarli barcha jabhalarini qamrab olgan. Shu jumladan inqiroz tufayli dunyo bo'yicha gazeta va jurnallarning adadi tobora tushib bormoqda, teleradio kanallarda reklamaning hajmi keskin kamaydi. Lekin, Internet va undagi axborot saytlari bu borada eng kam ziyon ko'rdi. Aksincha, aynan inqiroz sababli boshqa OAV ga nisbatan o'zining imkoniyatlarini kengaytira oldi. Ba'zi tadqiqotchilar hatto kelgusida reklama joylashtirilishida elektron OAV lari an'aviy OAV turlarini siqib chiqarishi haqidagi fikrlarni ilgari sura boshladilar. Masalan, Rossiyada Internetdagi reklama bozori umumiy qiymati 2009 yilda 598.4 mln. AQSH dollariga teng bo'lib, bu 2007 yilga nisbatan 55% ko'pdir. *"2008 yilda boshlangan inqirozga qaramay, internet-reklama bozori jadal sur'atlar bilan o'sishda davom etmoqda"*, deb yozadi "Kapital" gazetasi .

Yevropa banklari ham bu borada o'z qarashlarini qayta ko'rib chiqmoqda. Inqiroz tufayli, ular matbuot, radio va tashqi reklama xarajatlarini kamaytirgan holda, Internetga ustivorlik bermoqda. "Forbes" jurnalining yozishi bo'yicha, "Reklama beruvchilar 2009 yilda aynan Internetni ko'proq xushlamoqda. Chunki u nisbatan arzon bo'lib, ko'proq samara beradi. Hozirda hech kim Internet an'anaviy reklama tarqatuvchi OAV larga nisbatan "qiymat/natija" borasida qanchalik ustun ekanini aniq ayta olmaydi. Internet- qiziqarli media turi bo'lib, uning noyob imkoniyatlari kerakli auditoriyaga to'g'ridan-to'g'ri yetib borishi va interaktiv vositalari tufayli samaralidir".

Hozirda televideniya ko'p millionli reklama buyurtmalariga faqat yirik kompaniya va korporatsiyalar ega bo'lmoqda. Oxirgi yillarda ommalashgan yo'l chekkalaridagi ko'rgazmali reklama va bilbordlarning ham vaqti o'tib bormoqda. Axborot texnologiyalari rivojlanib borayotgan zamonda Internetdagi reklama boshqa turdagi reklamalardan anchagina afzalliklarga ega. Bugun aksariyat iste'molchi, ya'ni foydalanuvchi ko'p vaqtini komp'yuter oldida o'tkazadi. Ayni paytda Internet-reklama boshqa turdagi reklamalardan quyidagi jihatlari bilan ajralib turadi [1]:

-web muhitdagi reklama manzilli bo'lib, reklamaning auditoriyasi sonini aniq bilish mumkin;

-narx jihatdan arzonligi bilan ham ajralib turadi;

-auditoriyaning tarkibi –moddiy imkoniyatlarga ega bo'lgan aholining qatlamidan iborat ekanligi;

-Internetning o'zida barcha savollarga javob olib, mijozlar bilan bevosita aloqaga chiqish usullari mujassamligi;

-Internetda TV dan farqli ravishda reklama vaqtining chegaralanmaganligi;

-Internetda qilinayotgan mahsulot yoki xizmatlar haqidagi barcha ma'lumotlar o'qish uchun qulay uslubda bera olish imkoniyati mavjudligi;

-universallikning, ya'ni matn, rasm, ovoz, video va hokazolar bir vaqtning o'zida berilishi;

-Internet-reklama mobil xususiyatga ega ekanligi.

Internet-reklama bir necha turga bo'linadi:

-Matnli reklama.

-Kontekst reklama.

-Banner reklamasi.


*Matnli reklama*-maqola, intervyu, lavha, korrespondentsiya kabi janrlarda berilgan informatsion, tanishtiruvchi yoki tahliliy reklama axboroti. Bunday ko'rinishdagi reklama web-sahifaning ma'lumotga tegishli rukni va mavzusi ostida berilishi mumkin. Odatda, bunday matn yengil uslubda, izohlar bilan to'ldirilgan shaklda va qayta aloqa vositasini ko'rsatgan holda tuziladi. Matnning so'ngida albatta, o'quvchilarga ma'lumotning reklama sifatida taqdim etilgani haqidagi izoh berilishi kerak.

*Kontekst reklama*- ko'p hollarda material tarkibida, fotosurat ortida yashiringan ma'lumot sifatida beriladi. Masalan ,iqtisodiy mavzuni yorituvchi maqolaning tarkibida biror so'z orqali reklama materialiga giperyo'llanma qo'yiladi. Faraz qilaylik, materialda davlatning suv xo'jaligi sohasidagi o'zgarishlar mavzusi tahlil qilingan bo'lsin. Unda " suv xo'jaligi va melioratsiya" so'zi ajratilib, shu soxada faoliyat yurutuvchi tashkilot va muassasalar saytiga yoki shu haqdagi ma'lumotga giperyo'llanma beriladi.

*Banner reklamasi*- Internetda eng ko'p tarqalgan va faqat global tarmoqqa mos reklama turidir. Bu xildagi reklamalar bir necha yildirki o'z samarasini berib kelmoqda. OAV tomonidan web-sayt yaratish g'oyasi paydo bo'lgach, saxifa strukturasi reklama maydoni uchun joy ajratish kerak. Web –saxifalarda joylashtirilayotgan reklama bannerlari saytni texnik jixatdan og'irlashtirishi mumkin. Saytning ekranda sekin paydo bo'lishi, to'liq ochilmasligi uni yaratishda murakkab ma'lumotlardan, ayniqsa foto va animatsiyalardan ko'p foydalanilganligidan dalolat beradi. Shu sababli, ma'lumotlarni ekrandan o'qishda xalaqit beruvchi shaklda emas, qat'iy tizimda joylashtirish kerak.

O'zbekistonda ham hozirgi kunda Internet- nashrlar faol rivojlanib bormoqda. Bunga misol sifatida AKT rivojiga davlat darajasida ko'rsatilayotgan e'tiborni ko'rsatish mumkin. O'zbekiston aloqa va axborotlashtirish agentligi ma'lumotiga ko'ra 2010 yilning birinchi yarim yilligida aloq va axborot-kommunikatsiya sohasida 911,6 mlrd. so'm miqdorida xizmatlar taqdim etilib, 2009 yilning shu vaqtiga nisbatan o'sish 7 foizni tashkil etdi. Aholiga ko'rsatiladigan xizmatlar 552,4 mlrd. so'mni tashkil etib, 2009 yilning shu davriga nisbatan mazkur ko'rsatkich 4,4 foizga oshdi.

2010 yil 1 oktabr holatiga ko'ra aloqa va axborotlashtirish sohasi bo'yicha umumiy foyda xajmi 1391,6 mlrd. so'mni, aholiga ko'rsatiladigan pullik xizmatlar hajmi esa 850,2 mlrd. so'mni tashkil etdi(1-rasm). [2]



**1-rasm. Internetning iqtisodiy inqiroz davridagi ko'rsatkichlari**

Shunday ekan bugungi moliyaviy inqiroz davrida ham Internet xizmati faol rivojlanib borayotganini ko'rish mumkin. AKT sohasida faoliyat yuritish, biznes qilish va katta daromadlarga erishish borasida quyidai ma'lumotlar mavjud:

- AQSH da 27 mln. kishi faqat Internet vositasida uyda o'tirib pul topadi.
- Rossiyada 2010 yil Internet sohasida 19 mlrd. rubl miqyosida pul aylanmasi amalga oshirilib, Internet mamalakat yalpi ichki maxsulotining 3 foizini tashkil etadi, aholining 7 foizi Internet orqali xaridlar amalga oshiradi.
- 2010 yil yakunlariga ko'ra Rossiyada elektron tijorat xajmi 4 mlrd. AQSH dollarini tashkil etdi, 2011 yilda esa bu ko'rsatkich 6 mlrd. AQSH dollarini tashkil etdi.
- Hindiston iqtisodiyotida 2008 yil yakunlariga ko'ra axborot texnologiyalarining ulushi 5,5% ni tashkil etib, 64 mlrd. AQSH dollariga yetdi. 2010 yilga kelib bu raqam 90 mlrd. AQSH dollari miqdoridan ortdi.

Xulosa. Jahon moliyaviy inqirozi davrida Internet xizmatlari roli oshib va ommalashib bormoqda, ulardan olinadigan foyda ham oshib bormoqda.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Кудратхўжаев Ш. Интернет ва ахборот: хизматлар, фойдаланиш асослари. Тошкент, 2013 йил.
2. <https://spark.ru/startup/reconcept/blog/11533/rentabelen-li-internet-marketing-vo-vremya-ekonomicheskogo-krizisa-v-strane>.

**Ilmiy rahbar:**

**Aynaqulov Sh.A.**